

## TA'LIM TIZIMIDAGI GLOBAL MUAMMOLAR

**Abdulxayev Elyorbek Kaxramonjon o'g'li**

Andijon iqtisodiyot va qurilish instituti o'qituvchisi

**Annontatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim tizimidagi global muammolar haqida fikr yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье рассматриваются глобальные проблемы в системе образования.

**Annotation:** This article deals with global problems in the education system.

**Kalit so'zlar:** Ta'lim, tizim, islohot, muammo, yechim, an'ana, demokratiya, nazariya, amaliyot, muassasa.

**Ключевые слова:** образование, система, реформа, проблема, решение, традиция, демократия, теория, практика, институт.

**Key words:** education, system, reform, problem, solution, tradition, democracy, theory, practice, institution.

Bugungi kunda soat sayin rivojlanayotgan ilm-fan va axborotlashgan davrda oziga yetarlicha muammolar ham yo'q emas. Ta'lim tizimidagi global muammolarning bir kecha sabablari bor. Misol uchun demografik o'sish sabablari ta'lim tizimi muammosi bilan uziy bog'liq. So'nggi yillarda jahonda savodsizlar soni kamaygan bo'lsada, umumiy hisobda o'sishda davom etmoqda. Bunda ma'lumotsiz odamlarning hayoti amalda ko'p bolalikni xurofiy aqidalar bilan oqlaydigan arxaik oilaviy an'analarga bo'ysunadi. Natichada rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'rtasidagi tafovut bu jihatdan ham ortishida davom etmoqda. Hozirgi kunda savodxonlik umuman raqamlarda o'sayotgan bir paytda, savodsizlar, ya'ni o'qish, yozish, oddiy arifmetik amallarni bajarilishini bilmaydigan odamlar soni ham ortib bormoqda. Misol uchun "Hindiston aholisining 70%, Pokiston aholisining 60%, Afrika mamlakatlari aholisining 80% savodsiz".<sup>1</sup> Shu bilan birga mutaxassislar ayollar orasida savodxonlik darajasi erkaklarga nisbatan pastroq ekanini qayd etishgan. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, savodsizlarning 59% ni yosh ayollar tashkil qiladi.

" Shu bilan bir qatorda aksariyar insonlarning ma'lumot darajasi yangi texnologiyalar va kompyuter texnikasidan keng foydalanuvchi hozirgi jamiyatda to'laqonli yashash va mehnat qilish imkonini bermasligi bilan bog'liq funktsional savodsizlik ham ortib o'sib bormoqda".

Bu muammolarning boshqa bir jihati shundan iboratki, jahonning aksariyat davlatlarida ta'lim olish imkoniyati barchaga teng darajada ta'minlanmagan, bu ijtimoiy keskinlikning qo'shimcha manbai hisoblanadi. Shuningdek hozirgi kunda ta'lim sifatini yaxshilash, uning mazmunini ijtimoiylashtirish masalasi ko'ngdalang bo'lib turibdi. Shuni alohida ta'kindlash lozimki, ta'limning ijtimoiylashuvi o'quv jarayonifa gumanitar fanlarning o'quv soatlari yoki fanlar sonini ko'paytirish emas balki, tabiiy ilmiy fanlar mazmunini gumanitarlashtirish, har qanday ilmiy kashfiyotni inson mandaatlarini himoya qilishga yo'naltirish kerak. Shundagina inson o'z mavjudligini saqlab qolish imkoniyatiga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimining barcha bosqichlarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda va aynan shu maqsadlarni o'z ichiga oladi. Zero, insonning nafaqat bilim olishi, balki kasbiy malakalarga ega bo'lishi ijtimoiy savodsizlikni bartaraf qilishning muhim belgisi hisoblanadi.

Bugungi kunda dunyoda, xususan, O'zbekistonda ta'lim tizimida tubdan islohotlar amalga oshirilishi boshlandi. Maktabgacha ta'lim tizimidan Oliy talim tizimigacha bo'lgan jarayonlarni ko'rishimiz mumkin. Misol uchun, dunyodagi rivojlangan mamlakatlarda - Daniyada 95%

# INNOVATIONS IN SCIENCE AND EDUCATION SYSTEM

DEHLI, INDIA – APRIL 1

<https://eijmr.org/conferences/index.php/eimrc>

Germaniyada 92%, 3- 6 yoshdagi bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olgan bo'lsalar, 2016-yil holatiga O'zbekistonda 27 % bolalar bolalar maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiya olishi aniqlandi. Shu bois 2016-yil 29-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'rsida qarori e'lon qilindi. 2017-yilda maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi. Ushbu sa'y-harakatlar natijasida bugungi kunga kelib qariyb 50 % bola maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb qilindi.

O'zbekistondagi majburiy ta'lim tizimining fotmati shunday: 9+3 oddiy til bilan aytganda, avval to'qqiz yil umumta'lim maktabida, so'ng uch yil o'rta-maxsus kolejjida ta'lim olardi. Majburiy ta'lim 11 yillik tizimga o'zgartirildi. O'n bir yillik majburiy ta'limni tamomlab oliy o'quv yurtlariga yoki ma'lum kasbga yo'naltirilgan texnikumlarda davom ettirishlari mumkin. Har bir viloyatda prezident maktablari tashkil etilmoqda va xususiy maktablar soni ham ortib bormoqda.

Oliy ta'lim tizimida ham sezilarli islohotlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan sovet tuzimi davrida O'zbekistonda 20 ta oliy ta'lim muassasasi faoliya ko'rsatgan bo'lsa, 2022-yil holatiga ko'ra Oliy ta'lim muassasalar soni 159 ta, xorijiy OTM va uninf filiallari 30 ta, nodavlat OTM soni esa 24 taga ortganini ko'rishimiz mumkin. Xalqaro hamkorlik yangi bosqichiga ko'tarildi, xorijiy professor-o'qituvchilarning O'zbekiston ta'lim muassasalarida mahotat darslarini tashkil etish amaliyoti joriy etildi. Professor-o'qituvchilar va talabalarning akademik mobilligi tashkil etildi. Xususiy oliy ta'lim muassasalari tashkil etish jarayoni boshlandi. Dunyoda va O'zbekistonda ta'lim bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish hamkorlik amalga oshirilmoqda.

"Najot ta'limda, najot tarbiyada, najot bilimda. Maktab ta'limini rivojlantirsak, oliy ta'lim ham, ilm ham kelajakda rivojlanadi".- deydi Sh.Mirziyoyev.

Zamonaviy ta'limning o'rni va muammolari bugungi dunyodagi ijtimoiy vaziyatga murojaat qilmaslik mumkin emas, chunki ushbu vaziyatning barcha xususiyatlari bevosita ta'lim tizimida aks etadi. Zamonaviy dunyo juda ko'p turli xil muammolar bilan ajralib turadi. Bizning sivilizatsiyamizning eng muhim va "og'riqli" muammolari orasida zamonamizning global muammolari deb nomlangan narsa alohida o'rin tutadi.

Bugungi kunda savodxonlikning yoki uning yetishmasligi inson hayotining barcha sohalariga ta'sir korsatadi. Dunyodagi eng keskin va ommalashgan muammo bu nutq va yozuv savodxonligi muammosi. Kamroq o'rganilgan, ammo dolzarb bo'lib qolgan moliyaviy, huquqiy, kompyuter , axborot, ekologik, geografik va siyosiy savodxonlik masalalari.

## XULOSA

Bu global muammolarni yechimi faqat ilm va bilib, o'rganish va izlanish orqali yechishimiz mumkin. Agar biz ilmsiz bo'lsak qarshimizda turgan muammolarni yechisimiz mushkul.

Hozirgi kunda ba'zi ota-onalar o'z farzandlariga kiyim-keccha, eng so'ngi rusumdagi telefon olib beradi, lekin kitob olib berishni yodidan chiqadi. Eng yaxshi investitsiya bu bilimga sarflangan investitsiyadir. xulosa qilib aytganda ta'limsiz kelajak yo'q.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1 N.Shermuhammedova " Falsafa " Toshkent-2021 Idris Abdurauf Nashr.
- 2 Xalq so'zi gazetasi 29.01.2022 soni
- 3 uz.denometr.com
- 4 Ziyonet.uz.